

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IKKI EMAS, TO‘RT TIL LOZIM” MAQOLASI HAQIDA

Bo‘riqulov Abdulloh

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi islomshunoslik fakulteti*

Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: F.Maxmasobirova

Islom tarixi va manbashunosligi–

IRCICA kafedrasasi o‘qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt yil lozim” nomli maqolasining bugungi kunda ham qay darajada ahamiyatliligi tahlil qilinadi. Behbudiyning ushbu maqolasida til o‘rganishning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va strategik ahamiyati, shuningdek o‘sha vaqtdagi Turkiston xalqlarining taraqqiyotida ahamiyati yuqoriligi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, to‘rt til, fors tili, Turkiston, rus tili, taraqqiyot, turkiy til, Zayd ibn Sobit, adabiyot, Farobiy.

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat taraqqiyoti uchun, xalqning ongini uyg‘otish uchun turli mavzularda bir-necha yuzdan ziyod maqolalar, asarlar yozdi, ilk maktab darsliklarini tayorladi. O‘z davridagi muammolarni to‘g‘ri baholay olgan Behbudiy Turkiston xalqlariga o‘zlari kundalik hayotda so‘zlashadigan turkiy va forsiy tildan tashqari yana boshqa tillarni bilish zarurligini maqolalar orqali tushintirishga harakat qildi. Ana shunday maqolalar qatorida bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan, “Oyina” jurnalida bosib chiqarilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasidir. Maqolaning qay darajada ahamiyatli ekanligini uning “Oyina”ning birinchi sonidayoq chop qilingani bilan belgilashimiz mumkin. Unda turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo‘lishi, zamon ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo‘lishi uchun “turkiy, forsiy, arabiy va rusiy” tillarini bilishlari, ularda bemalol muloqot qilishlari zarurligini ta’kidlagan.

“Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbekiy so‘zlashur” deydi Behbudiy turkiy tilga ta’rifi chog‘ida. Bu fikrlari bilan millatning avvalo o‘z tilini yaxshi bilmog‘i kerakligini, o‘z tilini bilamagan millat o‘zgalarning tilini anglay olmasligini uqtirmoqchi bo‘lgan. Shuningdek, millatlarning mavjudligi uning tili bilan o‘lchanishini hisobga olsak, ona tilni bilish har jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

O‘sha davrda madrasalarda ta’lim asosan fors tilida bo‘lgan, shu bilan birga adabiyotda ham fors tilining o‘rni yuqori edi. Shu sababdan Behbudiy fors tilini ham

bilish lozimligini aytib, “Fors shoiru udabosi asarlari qiyomatg‘acha lazzati ketmayturgan xazinai ma’naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar” deya fors tiliga yuqori baho beradi. Bugungi kunda ham fors-tojik tilini bilish foydali bo‘lib, Firdavsiy, Bedil, Sa’diy Sheroziy va Rumiya kabi buyuk fors shoirlarining asarlarini asl yozilgan tilida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Keyingi o‘rinda arab tilini bilish lozimligi aytilgan bo‘lib, bu tilni bilish Behbudiy uchun diniy va ma’naviy bilimlarni egallash, Qur‘on va hadislarni asl holda o‘rganish vositasida talqin qilinadi. U nafaqat Turkiston balki butun musulmon jamiyatida arab tilini bilish faqatgina din uchun emas, balki tarix, tibbiyot, falsafa, mantiq va boshqa fanlarni o‘rganishda muhim omil sifatida ko‘radi. Bu til musulmon ummatining umumiy ilmiy-madaniy merosini o‘zlashtirishga imkon beradi.

Turkiston xalqiga eng kerakli va o‘zlashtirish muhim bo‘lgan tillar qatoriga rus tilini qo‘shar ekan, Behbudiy “Arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur” deb aytadi. Jadidchimiz rusiyani bilish orqali davlat mansablarida ishlashni, bu bilan esa din va millat foydasiga amaliy ishlar qilish mumkinligini eslatib o‘tgan. U vaqtda g‘arb tillarini bilishni ayrim mutaassib kishilar xarom va sha’riyatga nomunosib deya talqin qilishgan. Bunga javoban, Behbudiy Saodat asrini esga oladi va Rosululloh (s.a.v.) ning boshqa xalqlarning tillarini o‘rganishga buyurganlarini keltirib o‘tadi. “Hadisi sharifdan ma’lum bo‘ladurki, janobi payg‘ambar o‘z sahobalaridan Zayd ibn Sobitga yahudiy xatini o‘qub-o‘rganmoqg‘a buyurgan ekanlar” deb yozadi Behbudiy maqolasida. Shuningdek, asri saodatda yahudiylar Rosulullohga qaram edi va shunday bo‘lishiga qaramasdan ularning tilini o‘rganishga buyurganlar. Behbudiy esa ruslarga qaram bo‘lgan turkistonliklarni rus tilini o‘rganishga undab, bu ishda hech qanday yomonlik yo‘qligini tushuntiradi. Aksincha, rusiyani o‘rganish orqali ulardan o‘z haqlarini talab etishlari va turli davlat idoralarida ishlashlari mumkinligini keltirib o‘tadi.

Behbudiy “Xulosa, bugun bizlarga to‘rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy” deya maqolasini xulosalar ekan, bu orqali millatning rivojlanishi, boshqa xalqlar qatorida munosib o‘rin tutishini ko‘zlaydi. Bu esa bugungi kundagi yoshlarni ham o‘zga tillarni o‘rganish ne chog‘li zarur ishligiga ham dalolat qiladi. Zero, yurt ravnaqiga hissa qo‘shish uchun ko‘proq til o‘rganish, bu orqali zamonaviy yutuqlardan oson va tez foydalanish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda ingliz tilining mavqeyi ortib borayotgan bir davrda bu tilni o‘rganmaslik har birimiz uchun oqlab bo‘lmaydigan holatdir. Beruniy, Xorazmiy, Buxoriy, ibn Sino, Farobiy kabi o‘ndan ortiq tillarni mukammal biladigan ajdodlarimiz oldida bizning ikki-uch tilni qunt qilib o‘rganmasligimiz uyat aslida. Xususan, Farobiy 70 dan ortiq tilda bemalol so‘zlasha olganligini e’tiobga olsak, Behbudiy aytgan to‘rt tillilik ham oddiy ish bo‘lib qoladi.

Bugungi globallasuv, integratsiyalashuv va ko‘p madaniyatli muloqotlar davrida Behbudiyning ushbu g‘oyalari o‘z dolzarbligini hali-hanuz yo‘qotmaydi. Balki, yanada ahamiyatli bo‘lib boraveradi. Uning bu qarashlari zamonaviy ko‘p tillilik siyosatining milliy-madaniy ildizlarini anglashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi nafaqat jadidchilik davrining ilg‘or til siyosatini aks ettiradi, balki hozirgi yosh avlod uchun ham o‘ziga xos yo‘l xarita bo‘la oladi. Behbudiylarni o‘rganish orqali tafakkur, madaniyat va ma‘naviyatni yuksaltirishga chaqiradi —bu esa har qanday taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Oyina” jurnali. 1913-yil. 1-son 12-14-betlar.
2. Ziyoz. Mahmudxo ‘ja Behbudiylarni asarlari elektron kutubxonasi.
3. www.ziyo.uz